O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 82.091:821.133.1+821.112.2

Alisher Y. MAHMUDOV,
DSc, dotsent, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: alischer2473@mail.ru, ORCID ID: 0000-0002-3570-349X

Professor M.Begmatov taqrizi asosida

ORIENTAL MOTIFS IN WESTERN EUROPEAN ENLIGHTENMENT LITERATURE: THE EXAMPLE OF FRENCH AND GERMAN LITERATURE

Annotation

This article examines the formation and literary-aesthetic interpretation of Oriental motifs in Western European Enlightenment literature, focusing on French and German literary traditions. It explores the attitudes of French Enlightenment thinkers of the seventeenth and eighteenth centuries towards Eastern culture, Islam, Eastern philosophy and socio-political systems through the works of Voltaire and Charles-Louis de Montesquieu.

Keywords: Enlightenment, Oriental motifs, Western European literature, French literature, German literature, East and West, religious tolerance, Romanticism, Oriental studies, intercultural dialogue.

ВОСТОЧНЫЕ МОТИВЫ В ЛИТЕРАТУРЕ ЗАПАДНОЕВРОПЕЙСКОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ: НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦУЗСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В статье исследуются формирование и художественно-эстетическая интерпретация восточных мотивов в западноевропейской литературе эпохи Просвещения на материале французской и немецкой литератур. Анализируется отношение французских просветителей XVII–XVIII веков к восточной культуре, исламу, восточной философии и общественно-политическим системам в произведениях Вольтера и Шарля Луи де Монтескьё.

Ключевые слова: Просвещение, восточные мотивы, западноевропейская литература, французская литература, немецкая литература, Восток и Запад, религиозная толерантность, романтизм, востоковедение, межкультурный диалог.

G‘ARBİY YEVROPA MA’RIFATPARVARLIK ADABIYOTIDA SHARQONA MOTIVLAR: FRANSUZ VA NEMIS ADABIYOTI MISOLIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi, badiiy-estetik talqini va adabiy jarayonlarga ta’siri fransuz hamda nemis adabiyoti namunalari asosida tadqiq etiladi. Xususan, XVII–XVIII asrlarda Fransiyada Sharq madaniyati, islom dini, Sharq falsafasi va ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bo‘lgan munosabat Volter, Sharl Lui de Monteskyo kabi mutafakkirlarning asarlari orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvarlik, Sharqona motivlar, G‘arb adabiyoti, fransuz adabiyoti, nemis adabiyoti, Sharq va G‘arb, diniy bag‘rikenglik, romantizm, sharqshunoslik, madaniyatlararo muloqot, Gyote, Volter, Lessing.

Kirish. XVII–XIX asrlarda G‘arbiy Yevropa adabiyoti va ijtimoiy-falsafiy tafakkurida Sharq madaniyatiga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi muhim tarixiy-madaniy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Fransiya va Germaniyada ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishi, rivojlanishi hamda romantizm estetik tamoyillarining yuzaga kelishida Sharq adabiyoti, falsafasi, diniy qarashlari va badiiy an’analarining ta’siri sezilarli bo‘ldi. Mazkur jarayon Sharq va G‘arb o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarning kengayishi, tarjimachilik faoliyatining rivojlanishi hamda turli xalqlarning ma’naviy merosini qiyosiy o‘rganish imkoniyatlarining ortishi bilan xarakterlanadi.

Nemis adabiyotida Sharqona motivlarning rivojlanishi XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida yanada kengaydi. Bu jarayonda Gotthold Ephraim Lessing, Johann Gottfried Herder, Friedrich Schlegel, Johann Wolfgang Goethe va Friedrich Rückert kabi ijodkorlarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, Lessingning «Donishmand Natan» dramasida diniy bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari «Uch uzuk haqidagi rivoyat» orqali ifodalangan bo‘lsa, Gyotening «G‘arbu-Sharq devoni» asarida Sharq va G‘arb poetik tafakkurining o‘zaro uyg‘unlashuvi badiiy ifodasini topdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbiy Yevropa adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi va rivojlanishi masalasi adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va sharqshunoslik fanlari doirasida turli jihatlardan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar Sharq madaniyatining Yevropa adabiyotiga ta’siri, Sharq obrazining badiiy talqini, tarjima jarayonlari va madaniyatlararo munosabatlarning tarixiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Fransuz ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharq mavzusining talqinini o‘rganishda Volter va Monteskyo asarlari asosiy birlamchi manbalar sifatida xizmat qiladi. Monteskyo «Fors maktublari» asarida Sharq obrazidan Yevropa jamiyatining siyosiy va ijtimoiy tuzilishini tanqidiy yoritish maqsadida foydalangan. Asarda fors sayyohlari nigohi orqali Fransiya jamiyatining diniy, siyosiy va maishiy hayoti tasvirlanadi. Bu usul muallifga o‘z jamiyatidagi muammolarni begona madaniyat vakilining nuqtayi nazari orqali ochib berish imkonini yaratgan.

Volterning «Xalqlarning urf-odatlari va ma’naviyati haqida tajribalar» asarida esa Sharq xalqlarining tarixi, dini va madaniyati keng qamrovda yoritilgan. Uning tarixiy-falsafiy qarashlarida islom sivilizatsiyasi, Muhammad payg‘ambar shaxsi va musulmon hukmdorlari faoliyatiga oid turli munosabatlar uchraydi. Volterning «Muhammad yoki mutaassiblik» tragediyasida esa Muhammad obrazi diniy fanatizmni tanqid qilishga xizmat qiluvchi dramatik vosita

sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan uning ijodida Sharq mavzusi bir xil mazmunga ega bo‘lmagan, balki tarixiy va badiiy kontekstga qarab o‘zgarib boruvchi murakkab hodisa hisoblanadi. [4]

Sharq madaniyatining Yevropa adabiyotiga ta’sirini o‘rganishda Antuan Galland tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan «Ming bir kecha» asarining ahamiyati katta. Ushbu tarjima Yevropa kitobxonlarining arab xalq og‘zaki ijodi, Sharqona syujetlar, ramziy obrazlar va hikoyachilik an’analariga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi. Mazkur jarayon keyinchalik nemis adabiy muhitida ham Sharq adabiyotiga murojaat qilishning kengayishiga ta’sir ko‘rsatdi.[6]

Sharq va G‘arb adabiy aloqalarining badiiy ifodasini o‘rganishda Johann Wolfgang Goethe ijodining o‘rni alohida. Uning «G‘arbu-Sharq devoni» asari fors shoiri Hofiz ijodidan ilhomlangan holda yaratilgan bo‘lib, unda Sharq va G‘arb poetik an’analarining ijodiy uyg‘unligi kuzatiladi. Gyote Sharq she’riyatini G‘arb estetik mezonlari bilan cheklab baholashga qarshi chiqib, uning milliy va badiiy o‘ziga xosligini e’tirof etgan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sharqona motivlar Fransiya va Germaniya adabiyotida turli tarixiy va estetik sharoitlarda shakllangan. Biroq ularni yagona qiyosiy-tahliliy tizimda, xususan, diniy bag‘rikenglik, falsafiy qarashlar, tarjima va poetik transformatsiya nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganish zarurati mavjud. Mazkur maqola aynan shu ilmiy muammoni yoritishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi va badiiy talqinini aniqlash maqsadida tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik, germenevtik, kontekstual va intertekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida XVII–XIX asrlarda Fransiya va Germaniyada Sharq madaniyatiga bo‘lgan qiziqishning shakllanishi, uning tarixiy, siyosiy va madaniy omillari o‘rganildi. Bu metod Sharqona motivlarning turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. [1]

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini qiyosiy adabiyotshunoslik, madaniyatlararo muloqot, sharqshunoslik va tarjimashunoslikka oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tahlil uchun tanlangan badiiy asarlar tarixiy davri, janriy xususiyati va Sharqona motivlarning ifodalanish shakliga ko‘ra guruhlashtirildi.

Tahlil va natijalar. XVII asr oxiri va XVIII asr davomida Fransiyada Sharq madaniyati va islom sivilizatsiyasiga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu jarayon Yevropada tarixiy tafakkurning kengayishi, tarjimachilik faoliyatining rivojlanishi va boshqa xalqlarning diniy-madaniy merosini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq edi.[9]

Fransuz ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharq mavzusi, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu xususiyat, ayniqsa, Monteskyo ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning «Fors maktublari» asarida fors sayyohlari Usbek va Rika orqali Fransiya jamiyatining siyosiy, diniy va maishiy hayoti tasvirlanadi. Asarda Sharq vakillarining Yevropa hayotiga munosabati muallifga o‘z davridagi ijtimoiy munosabatlarni tashqi nigoh orqali tanqidiy baholash imkonini beradi.

Volter ijodida Sharq mavzusi murakkab va ziddiyatli xususiyatga ega. Uning tarixiy-falsafiy asarlarida Sharq xalqlarining dini, madaniyati va tarixiy taraqqiyotiga murojaat qilinadi. Volter Muhammad payg‘ambar shaxsini ayrim asarlarida ijobiy tarixiy-falsafiy mezonlar asosida baholagan bo‘lsa, «Muhammad yoki mutaassiblik» tragediyasida mazkur obraz orqali diniy fanatizm va hokimiyat suiiste’molini tanqid qilgan.[7]

Shu jihatdan Volter ijodida Sharq obrazi muayyan diniy qarashlarni tasdiqlash yoki inkor etishdan ko‘ra, inson tafakkuri, diniy erkinlik va siyosiy hokimiyat masalalarini yoritishga xizmat qiluvchi badiiy-falsafiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Volterning «Salib yurishlari tarixi» bilan bog‘liq tarixiy qarashlarida Salohiddin Ayyubiy siymosiga ham murojaat qilinadi. Salohiddin obrazi orqali diniy mansublikdan qat’i nazar, insoniy munosabat va bag‘rikenglik masalalari yoritiladi. Bu holat Sharq tarixiy shaxslarining Yevropa ma’rifatparvarlik tafakkurida axloqiy mezon sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi.[8]

Antuan Galland tomonidan «Ming bir kecha»ning fransuz tiliga tarjima qilinishi ham Sharqona motivlarning Yevropa adabiyotiga kirib kelishida muhim omil bo‘ldi. Ushbu tarjima orqali Sharq hikoyachilik an’analari, ramziy obrazlar, sarguzasht syujetlari va xalqona badiiy tafakkur Yevropa kitobxonlariga tanitildi.

Demak, fransuz ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharq mavzusi ijtimoiy tanqid, falsafiy mushohada va diniy masalalarni badiiy ifodalashning muhim vositasi sifatida shakllandi.

Nemis adabiy muhitida Sharq madaniyatiga bo‘lgan qiziqish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. Bu jarayonda fransuz va ingliz tillari orqali amalga oshirilgan tarjimalar, sharqshunoslik tadqiqotlari hamda nemis mutafakkirlarining qiyosiy-falsafiy izlanishlari muhim o‘rin tutdi. [10]

Johann Gottfried Herderning ilmiy qarashlarida Sharq xalqlarining tarixi, tili, folklori va poetik merosiga alohida e’tibor qaratilgan. U turli xalqlarning milliy adabiy an’analarini insoniyat madaniyatining o‘ziga xos tarkibiy qismlari sifatida baholaydi. Herderning ushbu yondashuvi Sharq adabiyotini mustaqil estetik va madaniy hodisa sifatida anglashga zamin yaratdi.

Nemis adabiyotida Sharqona motivlarning diniy-axloqiy talqini Gotthold Ephraim Lessingning «Donishmand Natan» dramasida yorqin ifodalangan. Asarning markazida Natan va Sulton Salohiddin o‘rtasidagi suhbat hamda «Uch uzuk haqidagi rivoyat» turadi. [3]

Rivoyatda uchta uzuk yahudiylik, xristianlik va islom dinlarining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning qaysi biri haqiqiy ekanini tashqi belgilar orqali aniqlash mumkin emas. Haqiqiylik esa insonning ezgu amallari, mehr-oqibati va axloqiy fazilatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Johann Wolfgang Goethe ijodida Sharq va G‘arb adabiy an’analarining uyg‘unligi yanada yuksak estetik darajaga ko‘tarildi. Uning «G‘arbu-Sharq devoni» asari fors mumtoz she’riyati, ayniqsa, Hofiz ijodidan olingan ilhom asosida yaratilgan.

Gyote Sharq she’riyatini G‘arb adabiyotining an’anaviy estetik mezonlari bilan cheklab baholashga qarshi chiqqan. U Sharq poeziyasining o‘ziga xos poetik shakllari, ramziy obrazlari, falsafiy mazmuni va ma’naviy-estetik xususiyatlarini e’tirof etgan. «G‘arbu-Sharq devoni»da muhabbat, ilohiy ishq, hayot, donishmandlik, inson erkinligi va madaniyatlararo muloqot mavzulari o‘zaro uyg‘unlashadi.[11]

Friedrich Rückert ijodida esa Sharq poetik an’analarining janriy va shakliy xususiyatlarini nemis she’riyatiga olib kirish jarayoni kuzatiladi. U fors mumtoz she’riyatiga, xususan, Hofiz ijodiga katta qiziqish bilan yondashib, g‘azal janrining poetik xususiyatlarini nemis tilida qayta yaratishga intilgan. Uning tarjimalari va ijodiy ishlanmalari nemis adabiyotida Sharq poetik shakllarining ommalashishiga xizmat qilgan.

Shunday qilib, nemis ma’rifatparvarlik va romantizm adabiyotida Sharqona motivlar falsafiy mushohada, diniy

bag‘rikenglik, poetik tajriba va estetik yangilanish bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

Fransuz va nemis ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi umumiy tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning badiiy-falsafiy talqinida muayyan farqlar kuzatiladi.

Mazkur xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Qiyosiy mezon	Fransuz adabiyoti	Nemis adabiyoti
Yetakchi vakillar	Volter, Monteskyo	Lessing, Herder, Gyote, Ryukkert
Sharq obrazining vazifasi	Ijtimoiy-siyosiy va diniy tanqid	Falsafiy-estetik va axloqiy mushohada
Yetakchi motivlar	Despotizm, din, erkinlik, bag‘rikenglik	Insonparvarlik, diniy bag‘rikenglik, muhabbat, donishmandlik
Badiiy ifoda shakli	Satira, falsafiy qissa, tragediya	Drama, falsafiy lirika, g‘azal, tarjima
Madaniy ta’sir shakli	Sharq tarixini va ijtimoiy tizimlarini badiiy talqin qilish	Sharq poetik shakllari va falsafiy qarashlarini ijodiy o‘zlashtirish

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, fransuz va nemis adabiyotida Sharqona motivlar turli estetik vazifalarni bajargan. Fransuz adabiyotida ular ko‘proq Yevropa jamiyatining ijtimoiy-siyosiy muammolarini anglash va tanqid qilishga xizmat qilgan bo‘lsa, nemis adabiyotida Sharq madaniyati mustaqil falsafiy-estetik qadriyat sifatida qabul qilinib, badiiy ijodning yangi shakllarini yuzaga keltirgan.

Sharqona motivlarning G‘arbiy Yevropa adabiyotiga kirib kelishida tarjima faoliyati muhim o‘rin egalladi. Ayniqsa, arab, fors va hind adabiyoti namunalarining Yevropa tillariga tarjima qilinishi adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qildi[5].

Tadqiqot natijasida G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi va rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tarixiy, falsafiy, estetik va tarjimaviy jarayonlar asosida kechgani aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, fransuz va nemis ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharq obrazining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy-madaniy omillar tizimlashtirildi.

Ikkinchidan, Monteskyo va Volter ijodida Sharq obrazining ijtimoiy-siyosiy, diniy va falsafiy vazifalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Uchinchidan, Sharqona motivlarning Yevropa adabiyotiga ta’siri tarjima, badiiy obraz, janriy o‘zlashtirish va poetik transformatsiya kabi shakllar orqali namoyon bo‘lishi asoslandi.

To‘rtinchidan, fransuz adabiyotida Sharq mavzusining ijtimoiy-siyosiy va tanqidiy yo‘nalishi, nemis adabiyotida esa falsafiy-estetik va poetik yo‘nalishi nisbatan ustuvor ekanligi qiyosiy tahlil asosida ko‘rsatildi.

Xulosa. G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning shakllanishi va rivojlanishi XVII–XIX asrlardagi murakkab tarixiy, ijtimoiy, falsafiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari Sharq madaniyati Yevropa ma’rifatparvarlari uchun nafaqat badiiy syujet va obrazlar manbai, balki insonparvarlik, diniy bag‘rikenglik, ma’naviy erkinlik va falsafiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilgan muhim intellektual omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Fransuz ma’rifatparvarlik adabiyotida Monteskyo va Volter ijodi orqali Sharq obrazining ijtimoiy-siyosiy va falsafiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Monteskyo «Fors maktublari» asarida Sharq obrazidan Yevropa jamiyatining siyosiy va ijtimoiy munosabatlarini tanqidiy yoritish vositasi sifatida foydalangan. Volter ijodida esa Sharq tarixi, dini va madaniyati insoniyat taraqqiyoti, diniy bag‘rikenglik hamda fanatizm muammolari bilan bog‘liq holda talqin etilgan.

Nemis adabiyotida Sharqona motivlar yanada chuqur falsafiy va estetik mazmun kasb etgan. Lessingning «Donishmand Natan» dramasida diniy bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari, Gyotening «G‘arbu-Sharq devoni»da Sharq va G‘arb poetik tafakkurining uyg‘unligi, Ryukkert ijodida esa Sharq she’riyatining janriy va uslubiy xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot davomida Sharqona motivlarning Yevropa adabiyotiga ta’siri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishi aniqlandi: birinchisi, Sharq madaniyati va tarixining ijtimoiy-falsafiy talqini; ikkinchisi, diniy bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi; uchinchisi, Sharq poetik an’analarining tarjima va ijodiy o‘zlashtirish orqali Yevropa adabiyotiga kirib kelishi.

Fransuz va nemis adabiyotidagi Sharqona motivlarning qiyosiy tahlili ushbu ikki adabiy muhitda Sharq madaniyatiga munosabat turli estetik va mafkuraviy vazifalarni bajarganini ko‘rsatdi. Fransuz adabiyotida Sharq obrazi ko‘proq ijtimoiy-siyosiy tanqid va falsafiy munozaralar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, nemis adabiyotida u ma’naviy-estetik izlanishlar, diniy bag‘rikenglik va poetik yangilanish omili sifatida namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida Sharqona motivlarning mavjudligi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarning tarixiy uzviyligini namoyon etadi. Ushbu jarayon ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ijodiy almashinuv va ma’naviy boyishning muhim namunasi bo‘lib, bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva R. Nemis-o‘zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va ilmiy asoslari (adabiy aloqa, tarjima va ta’sir masalalari): Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. –B. 36.
2. Державин К.Н. Китай в философской мысли Вольтера. В кн.: Вольтер. Статьи и материалы. – Л.: Изд-во Л1У, 1946, – С. 86-114.
3. Mahmudov A. Lessing ijodida Sharq madaniyati talqini. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. –B. 57.
4. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi.-T.:Akademiya, 2000. 42-43 -b
5. Goethe J. W. : West-östlicher Diwan. – Frankfurt/M.: Insel Taschenbuchverlag 1974. – S. 174.
6. Köhler, W.: Hugo von Hofmannsthal und Tausendundeine Nacht. – Frankfurt/M: Peter Lang 1972. –S.16.
7. Kuschel Karl- Josef: Jud, Christ und Muselmann vereinigt. Lessings ‚Nathan der Weise’. - Düsseldorf. 2004. – S. 111.
8. Mayer H.E. Geschichte der Kreuzzüge. – Stuttgart 2000. – S. 79.
9. Rypka, J.: Iranische Literaturgeschichte. - Leipzig: H. Wiederroth 1959. –S. 17.
10. Schimmel, A.: „Orientalische Einflüsse auf die deutsche Literatu”. In: See, K. v. (Hrsg.): Neues Handbuch der Literaturwissenschaft. Bd. 5: Orientalisches Mittelalter. Wiebelsheim: AULA Verlag GmbH, – S. 546-561.
11. Schlegel, F.: Kritische Ausgabe. Bd. II, hrsg. von Ernst Behler, – Padeborn; – München; – Wien: Verlag f. Schöningh 1961. – S. 92.